viy axborot vositalarida o‘zbek xalqining tarixiga oid sovet davrida shakllangan nazariyadan farqli qarashlar asosida yozilgan maqolalar paydo bo‘la boshladi”.[1]

Ma’lumki, sovet davrida dinsizlik tizimi hukmron bo‘lib, uning o‘rniga partiyaga va uning rahbarlariga sig‘inish siyosati singdirilgan. Shu bois tarixiy shaxslar yomonotliq qilinib, ming yillik qadriyat, din va e’tiqodlarimiz tarix varaqlaridan olib tashlangan, salbiy bo‘yoqda ifodalangan. Qadriyat, e’tiqod va milliy o‘ziga xoslik sifatida shakllangan Islom diniga qaytish ham mustaqillikning ilk yillarida boshlangan. Bu jarayon o‘zbek xalqining o‘zligini anglash, milliy mentalitetini oshkora namoyon etish davri bo‘lgan. Mazkur jarayonlar ommaviy axborot vositalarida o‘z aksini topgan. “Umuman, vatanimiz tarixiga e’tiborning kuchayishi ham mustaqillik arafasida milliy o‘zlikni anglashning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ldi. XX asrning 80-yillari oxiri va 90-yillari boshlariga kelib, O‘zbekistonda, avval, diniy va milliy “millatchilik” yorliqlari yopishtirilgan va xolis o‘rganilishi ta’qiqlangan milliy xarakterdagi ijtimoiy-siyosiy, falsafiy voqea-hodisalar, tarixiy shaxslar faoliyatini tadqiq etishga biroz erkinlik berildi. Natijada Islom dini va uning ahamiyati, tasavvuf (so‘fizm) masalalariga oydinlik kiritila boshlandi”.[2]

Xulosa, Sovet davrida mafkuraviy talab bo‘yicha xalqimizning milliy o‘ziga xosligini unuttirishga, uni kishilar ongidan chiqarib tashlashga urinish bo‘ldi. O‘z tarixi, dini, e’tiqodi, qadriyatlarini unutgan katta bir avlod voyaga yetdi. Din eskilik sarqiti sifatida, dinsizlik zamonaviylik va rivojlanish belgisi sifatida baholandi. Mustaqillikdan keyin vaziyat ancha o‘zgardi, milliy o‘zlikni anglash ehtiyoji davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi va aytish kerakki, bu masala o‘z vaqtida amalga oshirildi. Chunki globallashuv jarayonlari kundalik hayotga kirib kelar ekan, uning sabiy oqibatlaridan bo‘lgan milliy identivlikni saqlab qolish masalasi nihoyatda dolzarb bo‘layotganligini ta’kidlash kerak. Sharq xalqlariga nisbatan yillar davomida arosatda yashaganlar uchun bugungi kunda o‘zligini anglash masalasi hali ham mushkul vazifalardan biridir. Aholining katta qismi bunda Islom dini va e’tiqod orqali ana shu bo‘shliqni qisman to‘ldirishga harakat qilishayotganligini ta’kidlash kerak. Ammo milliy identivlikni saqlab qolish, globallashuv jarayonlarida o‘zligini yo‘qotib qo‘ymaslik soha mutaxassislari oldida turgan birlamchi vazifalardan biri ekanligini ta’kidlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Алимов Б.С. Медиа маконда миллий манфаатлар. Т., “Ta’lim–media” nashriyoti. 2019, 240-бет.

(2). Artiqova Y.A. Milliy o‘zlikni anglash: tarix, mohiyat va asosiy tushunchalar. “Ilm sarchashmalari”, 10-son (oktabr 2025) 121–124-betlar.

(3). Мирзаева Е.С. Влияние ментальности на язык СМИ (на примере телевидения Узбекистана) Scientificmethodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2020, № 2 (31), p. 216–224 https://journal.fledu.uz ISSN: 2181-8215 (online)

(4). Муминова Ф. Национальная идентичность, менталитет и СМИ. https://ca- .org.ru/journal/2002 / journal_rus/cac-05/18.memrus.shtml

(5). Жураев Ў. (2023). Борьба узбекской интеллигенции за реализацию национальной идентичности в средствах массовой информации в 80-е годы XX века. Общество и инновации, 4(11/S), с. 146–152. https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss11/S-p146152https://inlibrary.uz/index.php/socinov/article/view/43305

Kallibekova Gulnara Palbekovna (QMU dotsenti)

IJTIMOIY-SIYOSIY GAZETALAR: MAVZUSI, TILI VA USLUBI

Annotatsiya. *Maqolada gazetalarning mavzusi, tili va uslubi tadqiq etilgan. Gazeta matnlaridagi neologizmlar aniqlangan. Perifrazalarni ishlatishda jurnalist mahorati ochib berilgan. Tilning tasviriy vositalari gazeta matnlarida badiiylikni ta’minlashdagi xizmati o‘rganilgan. Gazeta maqollari va leksik taraqqiyot jarayonlariga keng e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *gazeta, gazeta tili, neologizm, perifraza, maqol, leksika, maqola, intervyu.*

ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ ГАЗЕТЫ: ТЕМА, ЯЗЫК И СТИЛЬ

Аннотация. *В статье исследуется тематика, язык и стиль газет. Выявлены неологизмы в газетных текстах. В использовании перифраз раскрывается журналистское мастерство. Изуче-*

[1] Жураев Ў. (2023). Борьба узбекской интеллигенции за реализацию национальной идентичности в средствах массовой информации в 80-е годы XX века. Общество и инновации, 4(11/S), 146–152. https://doi.org/ 10.47689/2181-1415-vol4-iss11/S-pp146-152 https://inlibrary.uz/index.php/socinov/article/view/43305

[2] Жураев Ў. (2023). Борьба узбекской интеллигенции за реализацию национальной идентичности в средствах массовой информации в 80-е годы XX века. Общество и инновации, 4(11/S), 146–152. https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss11/S-pp146-152 https://inlibrary.uz/index.php/socinov/article/view/43305

на роль изобразительных средств языка в обеспечении художественности газетных текстов. Большое внимание уделяется газетным статьям и процессам лексического развития.

Ключевые слова: *газета, газетный язык, неологизм, перифраза, пословица, лексика, статья, интервью.*

SOCIO-POLITICAL NEWSPAPERS: THEME, LANGUAGE AND STYLE

Annotation*. The article explored the subject matter, language, and style of newspapers. Neologisms in newspaper texts have been identified. Journalistic skills are revealed in the use of peripherals. Pictorial means of language are studied in newspaper texts in their service in providing artistry. Broad emphasis is placed on newspaper proverbs and lexical progress processes.*

Key words: *newspaper, newspaper language, neologism, peripherals, proverb, lexicon, article, interview.*

Kirish (Introduction). Gazeta–jamiyatimizdagi ijtimoiy-siyosiy sohalardagi axborotlarni yetkazib beruvchi manba. Hozirga kelib,yangi ma'lumotlarni auditoriyaga yetkazish imkoniyati ancha kengaydi. Shu davrda ham ijtimoiy-siyosiy gazetalar o'z o'rniga ega bo'lib qolmoqda. Chunki auditoriyaning axborot olishga bo'lgan talabi turlicha. Kimdir internet tarmog'i orqali, kimdir tele va radiokanallar orqali, yana kimdir gazeta-jurnal orqali ma'lumotlarni kuzatib borishga odatlangan. Shuning uchun ham gazeta doimo o'z auditoriyasiga onlayn va oflayn shaklda xabarlarni yetkazib bermoqda. Gazetalarda xabarlarni, yangiliklarni, voqea-hodisalarni yetkazib berishda tajribali jurnalistlar faoliyat olib bormoqda. Ularning faoliyati gazeta tili orqali namoyon bo'lmoqda. Har bir gazetaning tili va uslubi bor. Neologizm so'zlarni, frazeologizmlarni, tilning tasviriy vositalarini, maqol va iboralarni mavzuga moslashtirib mahorat bilan foydalanib kelmoqda. Gazeta ruknlari, sarlavhalari ham gazetxonlar e'tiborini jalb eta oladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Tadqiqotchilar tomonidan gazeta tili va uslubi keng tadqiq etilmoqda. Qator dissertatsiyalar yozildi, monografiyalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, lug'atlar tuzildi. Bu ham gazetalar tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish va talabning ortib borayotganini ko'rsatadi. O'zbek tilshunosligi va qoraqalpoq tilshunosligi qator ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbek tilshunosligida A.Boboyeva, I.Toshaliyev, I.Umirov, N.Qosimovalarning maxsus kitoblari nashr etilgan. Qoraqolpoq tilshunosligida M.Ayımbetov, Z.Orazımbetova, T.Masharipova, A.Pirniyazova, A.Najimov, G. Kallibekova, D.Qurbaniyazovlarning ilmiy ishlarida tadqiq etildi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur maqolada qator gazeta materiallari tadqiq etildi. Maqolalarni tadqiq etish jarayonida nazariy adabiyotlar tayanch manba sifatida foydalanildi. E.Berdimuratovning «Ha'zirgi qaraqalpaq tili. Leksikologiya», A.Bekbergenovning «Qaraqalpaq tiliniń stilistikası», Z.Orazımbetovaning «Qaraqalpaq kúndelikli baspasóz tiliniń stillik ózgeshelikleri», T.Masharipovaning «Publitsistika teoriyasınıń bir pútin konsepsiyası: ilimiy-metodologiyalıq analiz», A.Pirniyazovaning «Jámiyetlik-siyasiy leksikanıń rawajlanıw basqıshları», G.Kallibekovaning «Tarawlıq gazeta materiallarınıń tili hám stillik ózgeshelikleri» va «Qaraqalpaqstan kúndelikli baspasózi tilindegi perifrazalar sózligi» kitoblaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Gazeta tilida maqolalar mavzusi barcha sohalarni so'z etishga qaratilgan. Ularning bayan qilish uslubi keng. Maqolalar mazmuni bilan tanishganimizda neologizm so'zlarni, frazeologizmlarni, tilning tasviriy vositalarini, maqol va iboralarni mavzuga moslashtirib mahorat bilan foydalanib kelayotganligi aniqlashga erishildi. Gazeta maqolalaridan olingan misollarga to'xtalamiz.

1. Neologizm. Gazeta tili orqali adibiy tilimizga kirib kelayotgan neologizm so'zlar juda ko'p. Ularni biz qator misollarda aniqlaymiz. Masalan: «Shulardan biri ko'pchilik oilalarni «ishg'ol qilayotgan» va uy bekalarining ongini egallayotgan *vizual* kuch teleseriallardir» («Yangi O'zbekiston». 2025.16.08, №167). «Oqibatda oila go'yo «manaviy narkoz» ta'siriga tushgandek, o'rtadagi real yaqinlik o'rnini virtual yaqinlik egallay boshlaydi» («Yangi O'zbekiston». 2025.16.08, №167). «Shu ma'noda, seriallar brendlar yaratadi va ularni dunyo miqyosida ommalashtirishda muhim rol o'ynaydi degan xulosaga kelish mumkin» («Yangi O'zbekiston». 2025.13.08, №164). «Ammo soha rivojida keng miqyosdagi targ'ibot kuchiga ega mediakontentlar, xususan, serial, kino, shu yo'nalishlardagi *bloglardan* yetarli darajada foydalanilmayapti, nazarimda» («Yangi O'zbekiston». 2025.13.08, №164). «Dunyoda shuncha mediamahsulot bor ekan, qardoshlarimiz – ozarboyjonlik teletomoshabinlar aynan bizning milliy serialimizni tomosha qilayotganidan g'urur tuydim» («Yangi O'zbekiston». 2025.13.08, №164). Milliy seriallar nafaqat millat madaniyati va mentalitetini targ'ib qiluvchi, uning imijini ko'taruvchi mediakontent, balki uning eksportidan mumaygina daromad qilish mumkin bo'lgan mahsulot hamdir («Yangi O'zbekiston».2025.13.08, №164). Mediamahsulotlar esa sayyohlarni jalb etishda eng ta'sirli targ'ibot qurollari deyish mumkin («Yangi O'zbekiston» 2025.

13.08, №164). Ushbu salohiyatni sifatli mediakontentlar orqali yuzaga chiqarish zarur («Yangi O‘zbekiston» 2025.13.08, №164). Keyinchalik, mediamahsulot boshqa mintaqalarda ham o‘z tomoshabinlariga ega bo‘ldi va orolga ayni paytda yiliga 3 milliondan ortiq sayyoh keladi («Yangi O‘zbekiston». 2025.13.08, №164). «Bundan tashqari, milliy hunarmandlik, xizmat ko‘rsatish sohasi taraqqiyotida ham milliy mediakontentlarning targ‘ibot kuchi sezilarli darajada muhim o‘rin tutadi» («Yangi O‘zbekiston». 2025.13.0,. №164). «Shu bois, birinchi navbatda, milliy ruh singdirilgan sifatli milliy mediakontentlar tayyorlashga asosiy e’tiborni qaratish hamda ularni dunyo miqyosida ommalashtirish lozim» («Yangi O‘zbekiston». 2025.13.08, №164). «Shundagina milliy mediakontentlarimiz ham madaniy, ham mafkuraviy, ham iqtisodiy manfaat keltiradi» («Yangi O‘zbekiston». 2025.13.08, №164). «Bu ezgu amal yangicha shakl va mazmun kasb etib, bugungi kunda volontyorlar harakati bilan uyg‘un bo‘lib bormoqda» («Yangi O‘zbekiston». 2025.05.12, №252). «Hozir dunyo bo‘yicha volontyorlar soni 1 milliarddan ortiq» («Yangi O‘zbekiston». 2025.05.12. №252). «Shuningdek, ijtimoiy, talim va rivojlanish, inkluziv, atrof-muhit va ekologik loyihalar, raqamli va media, onlayn volontyorlik ko‘lami kengayib boradi» («Yangi O‘zbekiston». 2025.05.12, №252). «O‘zbekiston volontyorlar assotsiatsiyasi faoliyati ana shu ezgu amalni o‘zida ifoda etmoqda» («Yangi O‘zbekiston». 2025.05.12, №252). «Shunday paytlarda volontyorlar, ya’ni tashabbuskor xalq vakillari davlat uchun yaqin ko‘makchiga aylana oladi» («Yangi O‘zbekiston». 2025.05.12, №252). «Bunga yaqqol misol qilib bugun dunyoni qamrab olgan *pandemiya* davrini eslash kifoya» («Yangi O‘zbekiston». 2025.05.12, №252). «Volontyorlik davlat, biznes hamda jamoatchilik sektorini ezgulik yo‘lida birlashtiruvchi ijtimoiy sherikchilikning ko‘prigi sifatida o‘zini ko‘rsatadi» («Yangi O‘zbekiston» 2025.05.12. №252). «Ayni paytda yurtimizda 160dan ortiq volontyorlik guruhi 26 ta yo‘nalishda faoliyat yuritadi» («Yangi O‘zbekiston». 2025.05.12, №252). «Tizimning bir bo‘lagi sifatida ishlayotgan volontyorlar maktabi barcha hududlarda ko‘ngillilik istagidagi insonlarga ushbu tizimning qonun-qoidalarini o‘rgatadi» («Yangi O‘zbekiston». 2025.05.12, №252). «Volontyorlar maktabida o‘qitilgan yuzdan ortiq mentor o‘z ixtiyori bilan minglab insonlarga ko‘ngillilik harakati haqida ma’lumot beryapti» («Yangi O‘zbekiston». 2025.05.12, №252). «Natijada eng zamonaviy bilimlarga ega bo‘lsa-da, biroq qalbi qashshoq, o‘zgalar dardiga befarq va jamiyat manfaatlarini shaxsiy ambitsiyalaridan past qo‘yadigan «raqamli manqurtlar» avlodi paydo bo‘lish xavfi ortadi» («Yangi O‘zbekiston». 2025.02.12, №249). «Suniy intellekt sizga mukammal kod yozishni yoki chet tilni o‘rgatishi mumkin, lekin hayotiy donishmandlikni, sabr-qanoatni va insoniylik burchini o‘rgata olmaydi» («Yangi O‘zbekiston». 2025.02.12, №249). «Kelajak maktabini tasavvur qilganda, bir partada o‘tirgach, faqat planshetga tikilgan bolalarni emas, balki ko‘zlarida ilmga chanqoqlik yonib turgan, ustozi bilan bahs-munozara qilayotgan, tabiatni, jamiyatni va o‘zini anglashga intilayotgan yoshlarni ko‘rishimiz kerak» («Yangi O‘zbekiston». 2025.02.12, №249). «Maqsad o‘qituvchini almashtirish emas, balki uning imkoniyatlarini kengaytirish, uni «super mutaxassis»ga aylantirishdir» («Yangi O‘zbekiston». 2025.02.12, №249).

2. Perifraza. Gazeta perifrazalari gazeta sarlavhalarida, lid matnlarida, maqola matnlarida faol qo‘llanilib kelmoqda. Jurnalistlar so‘z etayotgan mavzusiga mos perifrazalarni topib ishlata olgan. Bu ham gazetxonni logik jihatdan teran mulohaza qilishga, maqolani to‘liq o‘qishga chorlaydi. Mavzuga oid ta’sirchan perifrazalarni kuzatgan o‘quvchi maqola davomida yana qanday perifrazalar berilgan ekan degan qiziqish payda bo‘ladi. Bu ham jurnalistning auditoriya bilan birga ishlashishdagi o‘ziga xos uslubi sifatida aytish o‘rinli. Bu perifrazalarni ishlatishda jurnalistdan teran bilim, tajriba va izlanish talab etiladi. Shuning natijasida gazetxon uchun chiroyli perifrzalarni taqdim eta oladi. Bu jarayonda biz jurnalistlarning ishlarini a’lo daraja baholashimizga bo‘ladi. Masalan: Albatta, bu borada o‘zining kino sanoati shahri bo‘lmish Gollibudga ega AQSH eng ko‘p daromad ko‘radigan davlat hisoblanadi («Yangi O‘zbekiston». 2025.13.08, №164). «O‘zbek karate sporti sahifalarida ham afsonaviy ayol karatechi, birinchi Osiyo o‘yinlari g‘olibi Safiya Kaspo‘latova, taniqli karate vakillari Sevinch Rahimova, Mohlaroy Hakimjonova, Bonu Egamberdiyeva kabi o‘zbek ayol-qizlari haqida bitiklar bor» («Yangi O‘zbekiston». 2025.04.12, №251). «Agar ilm aqlning chirogi bo‘lsa, odob qalbning bezagidir» («Yangi O‘zbekiston». 2025.02.12, №249). «Muallim esa milliy mafkura himoyachisi sanaladi» («Yangi O‘zbekiston».2025.02.12, №249). «Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jadidlik harakatining tan olingan rahnomasi, yangi maktab g‘oyasining asoschisi, birinchi o‘zbek dramaturgi, qalami o‘tkir publitsist, milliy matbuot rivojiga ulkan hissa qo‘shgan jurnalist hamda noshir sifatida Vatanimiz tarixida alohida o‘rin tutuvchi ulug‘ siymodir» («Yangi O‘zbekiston». 2025. 28.11, №247). Bu matnlardagi *kino sanoati shahri* – Gollibud, *birinchi Osiyo o‘yinlari g‘olibi* – Safiya Kaspo‘latova, *aqlning chirogi – ilm, qalbning bezagi – odob, milliy mafkura himoyachisi – muallim, yangi maktab g‘oyasining asoschisi – Mahmudxo‘ja Behbudiy* deb keltirilgan perifrazalardan mahorat bilan foydalanilgan.

3. Frazeologizm. Gazeta tilida frazeologizmlar faol ishlatiladi. Frazeologizmlar matn mazmunini aniq va ta'sirchan yetkazib beradi. Gazeta matnlarida eng ko'p qo'llaniladigan birlik sifatida ham tan olingan. Chunki qator tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida gazeta frazeologizmlari bo'yicha juda ko'plab misollar tahlil qilinib kelmoqda. Bu ham gazeta tilining o'ziga xos xususiyatlaridan biri. Masalan: «Har bir seriyadagi sujetlar inson psixologik ehtiyojlarini erkka chorlashga «*bel bog'laydi*»: qiziqish, dramatizm, romantika, intiqom…» («Yangi O'zbekiston». 2025.16.08, №167). «Bu yo'lda, «So'z latofati»da ta'kidlanganidek, qamishdek *bel bog'lab* xizmat qilishga harakat qilamiz» («Yangi O'zbekiston». 2025.16.08, №167). «Qorasuvdan kelin bo'lib tushgan Lolaxon opa Murodjon aka bilan olti farzandni *oq yuvib, oq tarab* voyaga yetkazdi» («Yangi O'zbekiston». 2025.15.08, №166). «Bir parcha erni ham bo'sh qoldirmay, savzavot ekdi, unganini bolalarining *og'ziga tutdi*» («Yangi O'zbekiston». 2025.15.08, №166). «Aholida e'tibor talab etiladigan yurtdoshlarimizga beminnat *yordam qo'lini uzatish*, yaxshilik ilinish, buni xolis bajarish istagidagi insonlar ko'ńligi quvonarli» («Yangi O'zbekiston». 2025.05.12, №252). «Diyoraning jasorati hali *tildan tushmay turib*, yana bir ayol sportchimiz – Gulshan Alimardonova ham jahon chempioni bo'ldi» («Yangi O'zbekiston». 2025.04.12, №251). «Ammo Jaloliddin Manguberdining so'nggi nafasidagi iztiroblarini, Cho'lponning millat qayg'usida bitgan satrlaridagi olovni o'quvchi qalbiga faqat yuragi urib turgan, *shu tuproqning issiq-sovug'ini tatigan* muallimgina singdira oladi» («Yangi O'zbekiston». 2025. 02.12, №249). «Aynan shu nuqtada o'qituvchi o'qituvchida tanqidiy fikrlash, *oqni qoradan ajratish* va har qanday axborotga tahliliy yondashish ko'nikmasini shakllantiradi» («Yangi O'zbekiston». 2025.02.12, №249). «Bu gapni eshitgach, ustimdan kimdir *sovuq suv quygandek bo'ldi*» («Yangi O'zbekiston». 2025. 29.11, №248). «Shunday ekan, o'g'lim nega bunday ishga *qo'l urganini* tushuna olmay, bir zum o'ylanib qoldim» («Yangi O'zbekiston». 2025.29.11, №248). «Yaxshi ish qilibsan, o'g'lim, ertaga ham shunday qil» desangiz, u pul uchun boshqa ishlarga ham *qo'l uradi*» («Yangi O'zbekiston». 2025.29.11, №248). Misollardagi *bel bog'laydi, bel bog'lab, oq yuvib, oq tarab, og'ziga tutdi, yordam qo'lini uzatish, tildan tushmay turib, shu tuproqning issiq-sovug'ini tatigan, oqni qoradan ajratish, sovuq suv quygandek bo'ldi, qo'l uradi* frazeologizmlar bo'lib, matn mazmunini yana ham ta'sirchan yetkazishga xizmat qilib kelgan.

4. Tilning tasviriy vositalari. Gazetada badiiylikning ahamiyati katta. Matn aniq, ixcham va ta'sirli berilishi kerak. Bu jarayonda tasviriy vositalardan foydalaniladi. Gazeta tilida o'xshatishlar faol ishlatilgan. Bu misollar gazetaning lid matnlarida ham ko'zga tashlanadi. Barshamizga tanish bo'lganidek lid matnlari e'tiborni jalb qilish maqsadida aniq va ixcham shaklda beriladi. Ularning matnlarida o'xshatishdan foydalanish ham o'ziga xos mahorat hisoblanadi. Masalan: «Bir qarashda kuz faslida bog' va ko'chalarda yer yuziga *gilamday* yoyilgan barglar tabiatiga o'zgacha go'zal manzara bag'ishlaydi»(«Yangi O'zbekiston». 2025. 02.12, №249). «Oila a'zolari o'zaro munosabatlarda *xazinadek* vaqtini seriallarga boy bermoqda» («Yangi O'zbekiston». 2025.16.08, №167). «Texnologiya qanchalik rivojlanmasin, jamiyat hayotida muallimning o'rni *quyosh kabi* so'nmas va abadiy bo'lib qolishi muqarrar» («Yangi O'zbekiston». 2025.02.12, №249). Gazeta tilida epitet so'zlar ham beriladi. Masalan: «Biz farzandlarimizga *baxt saroyini* qurib berish o'rniga, ularning bo'yniga yillar davomida uzilmaydigan qarz zanjirini ilmoqdamiz» («Yangi O'zbekiston» 2025. 29.11, №248). Misoldagi baxt saroyi so'zini epitet sifatida ishlatilgan. Bu matnga badiiylikni ta'minlashga xizmat kilmoqda. Gazeta maqolalarida metonimiyalar ham beriladi. *Masalan:* «Yuzma-yuz o'tirib, ayni bir-biriga *qalb qulfini* ochish fursatida, jonli muloqat o'rniga to'qima dramalar yurak yutib kuzatiladi» («Yangi O'zbekiston».2025.16.08,№167). «Endi muallimdan shunchaki bilim beruvchi retranslyator emas, balki *axborot okeanida* to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi mayoq, o'quvchining ruhiy dunyosini asrovchi qalqon va uning shaxsiyatini kamol toptiruvchi me'mor bo'lish talab etiladi» («Yangi O'zbekiston». 2025.02.12, №249).

5. Ingliz va rus tilidagi so'zlar. Gazeta matnlarida ingliz, rus tillardagi so'zlar faol ishlatiladi. Bu so'zlar gazetxon uchun ham tanish va tushunarli. Masalan: «Farg'onaning Bag'dod, buvayda, Uchko'prik, Qo'qon, Farg'ona tumanlaridagi Umummilliy birdamlik festivali doirasidagi diydor uchrashuvlari festivali doirasidagi diydor uchrashuvlari Qo'qonning «Yoshlar bog'i», Farg'ona shahrining *Eko city* amfiteatri sahnalaridagi gala konsertlarga ulanib ketdi» («Yangi O'zbekiston». 2025.15.08, №166). «Jalpı ma'jilis Senattın' «*YouTube*» tarmag'ındag'ı beti arqalı tikkeley sa'o'lelendirilip barıldı» («EQ». 2024.15.02, №19-20). «Atap aytqanda, xalıqaralıq standartlar ha'm normalardı milliy nızamshılıqqa implementatsiyalao' ma'selesin u'yrenio', miynet tarao'ındag'ı gender statistika mag'lıo'matların xalıqaralıq usınıslarg'a muo'apıq jetilistirio', qa'biletli jas hayal-qızlardı joqarı abıraylı uyımlarda *stajirovka* o'teo'in qamtıp alıo'dı ken'eytio' za'ru'r ekeni aytıp o'tildi» («EQ». 2024.15.02, №19-20). «Zamonaviy dunda axborot xurujlari va «*fake*» (soxta) ma'lumotlar ko'payib borayotgan bir pallada o'qituvchining «filtr» vazifasini bajarishi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda» («Yangi O'zbekiston». 2025.02.12, №249). Misollarda

Eko city, YouTube, fake, stajirovka so‘zlari berilgan. Bu kabi misollar gazeta tilida xabarda, maqolada, reportajda, hisobotda va intervyuda ham beriladi va barcha gazetxon bu so‘zlarni shu shaklda qabul qilmoqda.

5. Maqol va ibora. Gazetada berilayotgan maqol va iboralar ham matnning badiiyligini taminlay olgan. Misol: «Qadimgilarning bir yaxshi gapi bor: *ayollari savodli el jasoratli bo‘lur*. Insoniyatning birinchi tarbiyachilari onalardir» («Yangi O‘zbekiston». 2025.15.08, №166). «Otam 30 mingga yaqin kitobini bizga bo‘lib bergan va bir gapni tayinlagan: «*Kitob bor uyda baraka va ahillik bo‘ladi*»» («Yangi O‘zbekiston». 2025.15.08, №166). «Azaldan aytilgan «*Hunarli inson xor bo‘lmas*» degan purmano hikmat mehnatkash onaning hayot yo‘li haqida aytilgandek go‘yo» («Yangi O‘zbekiston». 2025.15.08, №166). «Xullas, istaysizmi, yo‘qmi, oiladagi muhit bolani tarbiyalaydi. Boshqacha aytsak, *qush uyasida ko‘rganin qiladi*» («Yangi O‘zbekiston». 2025.29.11, №248). Maqol va iboralar bugungi gazeta o‘quvchisi uchun tanish va uning mazmuni teran ekanligini tushuntirish maqsadida ishlatilishi e’tiborga molik. Xalq og‘zaki ijodida maqollar juda ko‘p, mavzusi xilma-xil. Bu maqollarni gazeta matnlarida ishlatish orqali gazetxonnig fikr yuritish, olg‘a intilish, insoniylikka xos xususiyatlar kabi tuyg‘ularini yana takomillashitirishda ahamiyatini yuqori baholash mumkin.

6. Gazeta sarlavhalari. Har bir gazetxon gazetani sarlavhaga qarab o‘qiydi. Gazeta sahifalarini ketma-ket o‘qib o‘rganish jarayonida juda qiziqli sarlavhalar tanlanayotganligi kuzatishimiz mumkin. Gazetalardagi sarlavhalarda jurnalist mahorat seziladi. Maqola mazmunini ko‘rsatib beradigan sarlavhalar berilgan. Masalan: «*Vodiylarni yayov kezganda*… hududlarda umummilliy birdamlik festivali o‘tkazilmoqda» («Yangi O‘zbekiston». 2025.15.08,№166). «Mulohaza» ruknida «*Qush uyasida ko‘rganini qiladi*» («Yangi O‘zbekiston».2025.29.11, №248). «Faxr» ruknida *«Samarqand saboqlari*» («Yangi O‘zbekiston» 2025. 28.11. №247). «Tojikistondan maktub» ruknida «*Besh barmoq biriksa, musht bo‘lar*» O‘zbekiston Prezidentining «Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida» maqolasini o‘qib…» («Yangi O‘zbekiston». 2025. 02.12, №249). «Ta’lim odimlari» ruknida «*Toshkent tajribasi – kelajak kasblariga yo‘nalirilgan loyiha*» («Yangi O‘zbekiston». 2025.05.12, №252).

7. Gazeta tilidagi leksik taraqqiyot. Gazeta matnlarida bir so‘z bilan birikib, yangi bir manoni bildirib kelayotgan so‘zlar faol beriladi. Gazeta tili orqali ayrim leksika birliklar juda ham aktiv qo‘llanilish jarayonlari mavjud. Masalan: «Mámleketimizde kóplegen iri *investitsiyalıq joybarlar* ámelge asırılmaqta» («EQ» 2024.14.05. №58). «*Jańa joybarlar* ushın 40 million dollar arzan resurs berildi» («EQ». 2024.14.05, №58). «*Issıxana* xojalıqlarınıń nátiyjeliligin arttırıw maqsetinde sırt elden maman agronom, etnomolog hám laboratoriya qánigelerin tartıw qárejetleriniń 50 protsentin, kómir qazanın satıp alıw qárejetleriniń 20 protsentine shekemgi bólegin qaplaw usınıs etilmekte» («EQ». 2024.14.05, №58). «Máhállelerde 70 mıń *mikrojoybar* ámelge asırılǵan» («EQ». 2024.14.05, №58). «Onda sharwashılıq *klasterlerinen* tolıq paydalanılmay atır» («EQ». 2024.14.05, №58). «Sonday-aq, Sharaf Rashidov hám Axangaran rayonlarında *bılǵarı klasterleri* shólkemlestirildi» («EQ». 2024.14.05, №58). «Keyingi jıllarda bul baǵdarda da *klaster sisteması* engizildi» («EQ». 2024.14.05, №58). «Sonıń ishinde, 74 *pille-jipekshilik klasteri* ha’m 11 tuqımgershilik kárxanası shólkemlestirildi» («EQ». 2024.14.05, №58). «Olarda suw tazalaw imaratı hám imarat qurıw ushın 40 million dollar arzan *resurs* qaratıladı» («EQ». 2024.14.05, №58). «Bánt bolmaǵan xalıq, sonıń ishinde, hayal-qızlar *mono oraylar* hám *pilleshilik klasterlerinde* qısqa kurslarda oqıtıladı» («EQ». 2024.14. 05, №58). «*Joybarlarǵa* tábiyǵıy hám jasalma bılǵarıdan ónim shıǵarıwshı sırt elli brendler tartıladı» («EQ». 2024.14.05, №58). «Bunıń ushın *sorsing kompaniyalarına* jumsalǵan kárxana qárejetleriniń 30 mıń dollarǵa shekemgi bólegin qaplap beriw jolǵa qoyıladı» («EQ». 2024.14.05, №58). «Bul jerler *lotlarǵa* bólinip, auktsion arqalı xalıqqa beriledi, auksionda jerdiń baslanǵısh bahası 10 protsent etip belgilenedi» («EQ». 2024.14.05, №58). «*Videokonferentsbaylanıs* tárizinde ótkerilgen jalpı májilisti Ózbekstan Respublikası Oliy Majlisi Senatınıń Baslıǵı Tanzila Narbaeva alıp bardı» («EQ». 2024.15.02, №19–20). Bu misollardagi joybar, klaster, oray singari so‘zlarning faol qo‘llanilayotganligi ko‘rishimizga bo‘ladi. Ayrim maqolalar matnida *og‘zaki uslubga* oid so‘zlar ham ishlatiladi. Misol keltiramiz: «Xususan, valyuta almashtirish, albatta, «*qora bozor*» orqali edi» («Yangi O‘zbekiston». 2025.14.08, №165). Bu kabi og‘zaki uslubda berilgan so‘zlar gazeta janrlarda ko‘plab beriladi va qator misollar keltirish mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-siyosiy gazetalar axborot yetkazib berishda o‘z auditoriyasi bilan muntazam ishlashib kelmoqda. Bu jarayonda biz gazeta tili va uslubining o‘ziga xos imkoniyatlari, majburiyatlari va yutuqlari ko‘p ekanligi ta’kidlab o‘tishimiz joiz. Gazeta tili neologizmlarni faol ishlatish orqali tilni boyitadi. Adabiy tilimizda boy resurs mavjud ekanligi perifrazalar mazmuni orqali ko‘rsata olgan. Gazeta matnlarida eng ko‘p qo‘llaniladigan birlik bu frazeologizmlar. Tilning tasviriy vositalari maqolalarning matnlarida, kirish, asosiy bo‘lim va xulosa qismida ham mahorat bilan foydalanilgan. Ingliz va rus tilidagi so‘zlar xabarda, maqolada, reportajda, hisobotda va inte-

rvyuda ham beriladi. Gazetxonlar orasida fikr almashish, olg‘a intilish, insoniylikka xos xususiyatlar kabi tuyg‘ularini yana takomillashitirishda gazeta matnlarida muntazam ishlatilayotgan maqollarning o‘rni beqiyos. Gazetalar sarlavhalarining mazmunida gazetxon bilan birga ish olib borish jarayonlari yo‘lga qo‘yilgan. Eng asosiysi, gazeta tili leksik taraqqiyotni ta’minlashda asosiy manba xizmatini bajarib kelmoqda. Shuning uchun ham mazkur mavzuni doimo o‘rganib borish asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Kallibekova G.P. Tarawlıq gazeta materiallarınıń tili hám stillik ózgeshelikleri. Nókis, “İlimpaz”, 2022.

(2). Marziyaev J., Kallibekova G. Media tili hám stili. Toshkent, 2023.

(3). Pirniyazova A. Jámiyetlik-siyasiy leksikanıń rawajlanıw basqıshları. Nókis, 100-bet.

(4). Kallibekova G. Qaraqalpaqstan kúndelikli baspasózi tilindegi perifrazalar sózligi. Nókis, “İlimpaz”, 2025, 108-bet.